O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QURILISH VA UY-JOY KOMMUNAL
XO'JALIGI VAZIRLIGI

"SHAHARSOZLIK
HUJJATLARINI EKSPERTIZA
QILISH RESPUBLIKA
MARKAZI" DM

100011, Toshkent shahri, Abay ko'chasi, 6-uy, Tel/Faks: 71-203-11-01, E-mail: davexpertiza@exat.uz, new-ekspertiza.mc.uz

Holati: Ijobiy
Direktor: Inoyatov Mirabbos Mirkomilovich
Sana: 26-08-2024 yil

YIG'MA EKSPERT XULOSASI

214767 - SONLI

Obyekt nomi: Мавжуд бино-иншоотни «Маъмурий бино ва офис ҳамда бизнес маркази» биносига қайта ихтисослаштириб реконструкция қилиш.	
Buyurtmachi:	METRO PLAZA MCHJ
Bosh loyihachi:	"PRO UNITI GROUP" MAS`ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT
Moliyalashtirish manbai:	Buyurtmachining o'z mablag'lari hisobidan
Bosh pudratchi:	Buyurtmachi tomonidan aniqlanadi.
Qurilish turi:	Yangi qurilish
Murojaat raqami:	013181

1. Loyihalash uchun asos.

1.1. Toshkent shahar Qurilish bosh boshqarmasi tomonidan 2021-yil 6-oktabrda berilgan 1726273-15966-sonli ruxsatnomasi.

1.2. Toshkent shahar Qurilish bosh boshqarmasi tomonidan 2021-yil 13-oktabrdagi 1726-1726273-29898-sonli Arxitektura-rejalashtirish topshirigi.

1.3. Buyurtmachi va loyiha tashkiloti o‘rtasida 2023-yil 15-mayda tuzilgan 1-15.23-sonli loyiha-smeta xujjatlarini tayyorlash uchun shartnoma.

1.4. “Hududiy elektr tarmoqlari korxonasi” AJ Toshkent shahar hududiy filiali tomonidan 2023-yil 4-avgustda berilgan elektr tarmoqlariga ulanish uchun 05-0991-sonli texnik shart.

1.5. “Hududgaz Poytaxt” Gaz ta’minoti filialining 2023-yil 25-avgustdagi 030546-sonli texnik sharti.

1.6. “Toshkent shahar suv ta’minoti” MChJ tomonidan 2022-yil 25-iyulda berilgan 270/4-2250-sonli texnik sharti.

1.7. Belgilangan tartibda kelishilgan va 2021-yil 7-dekabrda buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan loyihalash topshirig‘i.

1.8. Qurilish maydonchasining muhandislik-geologik sharoitlari bo'yicha «EDZEM ENGINEERING» MChJ ning 2022-yildagi xulosasi.

2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar.

2.1. Loyiha tarkibiy bayoniga ko‘ra «ishchi loyiha» (*A, B, C - bloklar*) ning elektron yo‘nalishda taqdim qilingan loyiha-smeta hujjatlari.

3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni.

3.1. Qurilish maydonchasining ma’lumotlari.

Normativ shamol bosimi - W_o = 0,38 kPa.

Normativ qor qatlami vazni - S_n = 0,50 kPa.

Tumanning zilzilabardoshligi - 8 ball.

Tuproqlar – lyossimon tuproq.

Tuproqning cho‘kuvchanligi – II (ikkinchi).

Tuproqning seysmik xususiyati bo'yicha toifasi – III (uchinchi).

Hisobga olingan seysmiklik - 9 ball.

Tuproqning muzlash chuqurligi – 0,70m.

3.2. Arxitektura – rejalashtirish yechimlari.

Loyihaning ushbu bosqichida buyurtmachining 2023-yil 14-oktabrdagi 161-sonli xatiga ko‘ra A, B, C – bloklarning loyiha-smeta hujjatlari ekspertizadan o‘tkazish ko‘zda tutilgan.

Noturar-joy binosi 3ta blokdan iborat bo‘lib, bir-biridan seymik choklar bilan ajratilgan. Shulardan quyidagilarni qurish ko‘zda tutilgan.

Noturar-joy binolari (Biznes Markazi, savdo majmualari va avtoturargohlar):

- Blok A (21 qavatli);
- Blok B (19 qavatli);
- Blok C (18 qavatli).

Binoning har bir qavatida, shuningdek, nogironlar aravachasida harakatlanayotgan jismoniy imkoniyati cheklangan shaxslarga kirish imkoniyati uchun binoga kirish darajasida (0,000 balandlikda) lift to'xtash joyi ko'zda tutilgan.

Blok A – 21 qavatli, 4 qavat yerto‘lali, to‘rtburchak shakliga ega, o‘lchamlari 19,8x30,9m. Yerto‘laning birinchi va to‘rtinchi qavati balandligi 3,2m, ikkinchi va uchinchi qavati balandligi 3,8m, binoning birinchi qavati balandligi 7,5m, ikkinchi qavati balandligi 4,0m (poldan polgacha).

Bino yerto‘lasi birinchi qavat qismida texnik xonalar va muhandislik tarmoqlari uchun mo‘ljallangan xonalar, ikkinchi- to‘rtinchi qavat qismida esa avtoturargoh joylashgan.

Bino qavatlarida savdo majmualari mavjud.

Blok B – 19 qavatli, 4 qavat yerto‘lali, to‘rtburchak shakliga ega, o‘lchamlari 19,2x35,11m. Yerto‘laning birinchi va to‘rtinchi qavati balandligi 3,2m, ikkinchi va uchinchi qavati balandligi 3,8m, binoning birinchi qavati balandligi 7,5m, yuqori qavatlar balandligi 4,0m (poldan polgacha).

Bino yerto‘lasi birinchi qavat qismida texnik xonalar va muhandislik tarmoqlari uchun mo‘ljallangan xonalar, ikkinchi- to‘rtinchi qavat qismida esa avtoturargoh joylashgan.

Binoning 1-2 qavatlarida savdo majmualari mavjud. Yuqori qavatlarida ofislar joylashgan.

Blok C – 18 qavatli, 4-qavat yerto‘lali, to‘rtburchak shaklida ega, o‘lchamlari 19,3x36,8m. Yerto‘laning birinchi va to‘rtinchi qavati balandligi 3,2m, ikkinchi va uchinchi qavati balandligi 3,8m, binoning birinchi qavati balandligi 7,5m, yuqori qavatlar balandligi 4,0m (poldan polgacha).

Bino yerto‘lasi birinchi qavat qismida texnik xonalar, muhandislik tarmoqlari uchun mo‘ljallangan xonalar, ikinchi va uchinchi qavat qismida esa avtoturargoh joylashgan.

Er osti avtoturargoh binosiga avtomobillarning kirish va chiqishi rampa orqali ko‘zda tutilgan.

Binoni tashqi pardozlash:

Tashqi devorlar – zamonaviy materiallardan, dekorativ suyuq va ekologik toza bo'yoqlar va ranglardan foydalanilgan. Bino fasadining asosiy qismi alyuminiy kompozit panellardan yasalgan ventilyatsiya qilingan fasad tizimidan iborat.

Xonalarni ichki pardozlash:

Loyihalashtirish topshirig‘iga asosan xonadonlarda quyidagilar ko‘zda tutilgan:

- xonalarda rotband turidagi gipsli suvoq, suv asosli bo‘yoq bilan bo‘yash pardozlash ishlari;

- nam xonalarda keramik plitkalar bilan pardozlash ishlari.

- pol – keramik plitalar, laminat va beton.

3.3. Konstruktiv yechimlari.

Bloklar A, B, C. Binolarning konstruktiv tizimi qattiq diafragmalar va ustunlarga ega pog'onali monolitik temir-beton ramka hisoblanadi.

Binoning yuk ko'tarish qobiliyati seysmik ta'sir (maxsus kombinatsiya) uchun 1 chegara holati (PS) uchun 9 (to‘qqiz) ball va 2 PS uchun 7 (etti) ballga teng bo'lgan hisoblab chiqilgan, p.2.3. KMK 2.01.03-19 - "Seysmik hududlarda qurilish."

Poydevorlar - 2000 va 700 mm qalinlikdagi monolili temirbeton plitalar, beton sinfi B25;

Yer to‘la devorlari - 400 mm qalinlikdagi monolitli temir-beton, beton sinfi B25;

Ustunlar va ustunlar - monolitli temir-beton, beton sinfi B25;

Devorlari - qalinligi 300mm gaz blokidan;

Orayopma va tom yopmalar qalinligi 200 mm bo'lgan monolitli temir-beton, beton sinfi B25;

Zinapoya - monolitli temir-beton;

3.4. Yong‘in xavfsizligi.

Yong‘inga qarshiligi – II toifa.

Funksional yong‘in xavf turi – F1.3.

Konstruktiv yong‘in xavf turi – S0.

3.5. Energiya samaradorlik.

Energiya samaradorlikni ta’minlash uchun quyidagi energiya tejovchi texnologik yechimlar qabul qilingan:

– zichligi ɣ=125 kg/m3, qalinligi 50 mm bo‘lgan bazalt plitalardan devor termoizolyatsiyasi bajarilgan (termoizolyatsiyaning ikkinchi darajasi);

– Orayopma termoizolyatsiyasi qalinligi 40mm penopleks bilan bajarilgan (termoizolyatsiyaning ikkinchi darajasi);

– FIK yuqori samarador radiatorlar va isitish uskunalaridan foydalanilgan va b.

– yoritish svetodiodli chiroqlar orqali bajarilgan va b.

4. Loyihalanayotgan obyektning muhandislik ta'minoti.

Bino barcha muhandislik tizimlari bilan jihozlangan: isitish, shamollatish, havoni tozalash, elektr ta’minoti, aloqa va signalizatsiya, videokuzatuv, suv ta’minoti va kanalizatsiya, xavfsizlik va yong‘in signalizatsiyasi, yong‘inni avtomatik o‘chirish va boshqa tizimlar shaharning muhandislik tarmoqlariga texnik shartlarga muvofiq ulanadi (ART kelishuvi va loyihalash topshirig‘i).

5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.

5.1. Ishchi loyiha quyidagi tashkilotlar tomonidan ko‘rib chiqilgan va kelishilgan:

- Toshkent shahar Qurilish bosh boshqarmasi Arxitektura va shaharsozlik kengashi ishchi organining 2022-yil 11-maydagi 43813 -sonli xulosasi;

- O'zbekiston Respublikasi Tabiat Resurslari Vazirligi Toshkent shahar Boshqarmasi Davlat ekologik ekspertizasining 2023-yil 04-maydagi 01-01/04-835-sonli xulosasi;

- O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi M.T.O‘rozboev nomidagi Mexanika va inshootlar seysmik mustahkamligi instituti (2023-yil 26-apreldagi 845-3-sonli ilmiy xulosasi).

6. Ekspertiza natijalari.

6.1. Ishchi loyiha ekspertiza ko‘rigiga buyurtmachining arxitektura-rejalashtirish, konstruktiv yechimlari, energiya tejamkorlik va boshqa yechimlari izohlarsiz taqdim etilgan.

6.2. Ekspertiza jarayonida mahalliy (lokal) ekspert xulosalarining izohlariga muvofiq ishchi loyihasiga asosiy tuzatishlar va qo‘shimchalar kiritildi.

- loyihaning bosh muhandisi tomonidan 21 qavatli noturar-joy binosining seysmik mustahkamligi taqdim etildi;

- konstruktiv hisoblarga asosan temirbeton rigellar va monolitli diafragmalar orqali mustahkamlanganligi ko‘rsatib o‘tildi;

- turar joy yagona fazoviy sistema sifatida ishlashiga sharoit yaratib, seysmik yuklarni barcha yuk ko‘taruvchi elementlarga taqsimlanishi ta’minlandi;

- binoning konstruktiv hisobida KMK 2.01.03-19 ning 2.5-band talablariga muvofiq 2.6a-bandi bo'yicha hisoblashda vertikal seysmik yuk gorizontal va vertikal yer tebranishlarining sinxronlashtirilgan akselogrammalari ko'rinishidagi ta'sirni ko'rsatish orqali hisobga olindi.

6.3. Ekspertiza natijalari bo‘yicha ishchi loyihaga quyidagi o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilishi lozim:

- zinapoyalarning har bir qavatida tashqi devorlardagi tirqishlar orqali tabiiy yoritishni ta'minlash;

- er osti avtoturargoh joyida avtomatik yong'in o'chirishni tizimi bilan ta'minlash;

- ichki yong'indan himoya qilishni yong'inga qarshi suv ta'minoti gidrantlarni o'rnatish bilan ta'minlash;

- avtoturargohlar va avtomobil to‘xtash joylarini qayta ko‘rib chiqishi;

- barcha tashqi o'rab turgan tuzilmalar uchun issiqlik muhandislik hisob-kitoblarini taqdim etishi;

- binolarning energiya pasportini taqdim etishi;

- binoning perimetri bo‘ylab, bino devoridan avtomobil yo‘ligacha 8-10 m. qoldirib, yong‘in o‘chirish texnikalarining harakatlanishi va avtonarvonlarni o‘rnatish imkoni bo‘lgan kengligi 6 m.dan kam bo‘lmagan yo‘llarni tashkil etilishi (ShNQ 2.07.01-03* 1-ilova 10 va 15 bandlari).

Yuqorida ko‘rsatilgan kamchiliklarni loyihaning keyingi bosqichlarida bartaraf etib, to‘g‘irlangan loyiha xujjatlarini ekspertizaga taqdim etishi shart.

6.4. Buyurtmachiga loyihaviy hujjatlarni tasdiqlashdan oldin belgilangan tartibda barcha manfaatdor vakolatli organlar bilan kelishishi.

Buyurtmachi ishchi loyihaning muhandislik tarmoqlari va bosh rejada ko‘rsatilgan boshqa bino va inshootlar loyixa hujjatlari ishlab chiqilib, o‘rnatilgan tartibda ekspertiza ko‘rigiga taqdim qilishi shart.

6.5. Buyurtmachi va loyiha tashkilotiga o‘rnatilgan tartibda ekspertiza tomonidan berilgan kamchiliklarni bartaraf etgan holda loyiha hujjatlarini o‘zgartirish talabi qo‘yilgan. Agar ushbu talab bajarilmasa va loyiha-smeta hujjatlari buyurtmachiga to‘liq tuzatishlarsiz berilsa, ushbu ekspertiza xulosasi haqiqiy emas deb hisoblanadi.

6.6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 20-maydagi 321-son qarori 3-ilovasiga muvofiq shaharsozlik hujjatini ishlab chiqaruvchi tashkilot tomonidan

qurilish ishlari butun davri davomida “Mualliflik nazorati”ni amalga oshirilishinni ta’minlaydi.

6.7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentyabrdagi 579-sonli qarorining 3-bob 29-bandiga muvofiq va ShNK 1.03.06-13 ga asosan «Davlat ekspertizasiga taqdim etiladigan shaharsozlik hujjatlarining sifati uchun javobgarlik buyurtmachiga (dastlabki ma’lumotlarni loyihalashtirish jarayonida taqdim etilgan dastlabki ma’lumotlarning ishonchliligi bo‘yicha) va ishlab chiquvchiga (qabul qilingan loyiha qarorlari bo‘yicha) yuklatiladi.

7. Xulosalar.

7.1. «Mavjud bino inshootini yuridik hujjatga ega qismini ma`muriy bino va ofis hamda biznes markazi binosiga qayta ixtisoslashtirib rekonstruksiya qilish» (A, B, C - bloklar) ishchi loyihasi ekspertiza tekshiruv natijalarini hisobga olgan holda ko‘rib chiqib, kelishishga tavsiya etiladi.

Bosh ekspert: Mirbobayev Zakir Xusnitdinovich.

Ishtirokchi ekspertlar: Musayev Rustam Talatovich, Shakurov Rafael Faxrazeyevich, Xatamov Nurbek Choriyevich, Mirbobayev Zakir Xusnitdinovich